

20-Aprel, 2026-yil

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING
AHAMIYATI**

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Yuridik xizmat faoliyati 02-08-guruh o‘quvchisi

Fayzieva Shohsanam Rustamovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning konseptual huquqiy asoslari va ularning amaliy ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi korrupsiyaning davlat iqtisodiy xavfsizligiga va qonun ustuvorligi tamoyiliga salbiy ta’siri bilan asoslanadi. Maqola doirasida O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillardagi antikorrupsion qonunchiligi, xususan, "Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida"gi hamda "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi qonunlarining huquqiy mexanizmlari qiyosiy o‘rganilgan. Muallif korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazo choralarini qo‘llash emas, balki normativ-huquqiy hujjatlarning antikorrupsion ekspertizasi va "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish orqali preventiv (oldini oluvchi) huquqiy muhit yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqot jarayonida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi va xalqaro standartlarning o‘rni tahlil qilingan. Maqola yakunida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish, davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiyalash tizimini takomillashtirish va sud hokimiyatining real mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Antikorrupsion siyosat, huquqiy preventiv choralar, manfaatlar to‘qnashuvi, huquqiy ekspertiza, jazo muqarrarligi, deklaratsiyalash, institutsional islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy islohotlar, shaffoflik, raqamlashtirish, meritokratiya, jazo muqarrarligi, antikorrupsion ekspertiza, komplayens-nazorat, ochiqlik.*

*Korrupsiyani yengish uchun eng yaqin uchta do‘stingizni qamoqqa
tiqishga tayyor bo‘lishingiz kerak. Siz buni nima uchun qilganingizni bilasiz,
ular ham nima uchunligini bilishadi."*

Li Kuan Yu

Korrupsiya — bu shunchaki axloqiy tushuncha yoki alohida shaxslarning qonunbuzarligi emas, balki davlatning huquqiy poydevorini ichidan yemiruvchi tizimli tahdiddir. Zamonaviy yurisprudensiyada korrupsiya inson huquqlarining poymol etilishiga, ijtimoiy adolatsizlikka va bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining buzilishiga olib keluvchi eng asosiy omil sifatida ko‘riladi. Bugungi kunda global miqyosda davlatlarning raqobatbardoshligi nafaqat ularning resurslari, balki ushbu resurslarni boshqarishda korrupsiyadan qanchalik xoli ekanligi, ya’ni "institutsional tozaligi" bilan o‘lchanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat

20-Aprel, 2026-yil

siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayon shunchaki kampaniya xarakteriga ega bo‘lmay, balki tizimli huquqiy islohotlar zanjirini tashkil etmoqda. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar korrupsiyaga nisbatan "murosasiz munosabat" (zero tolerance) muhitini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda asosiy urg‘u huquqtartibot organlarining jazo choralari emas, balki korrupsiyaga yo‘l ochib beruvchi huquqiy bo‘shliqlarni yopishga va ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Huquqiy islohotlarning markazida "inson omili"ni minimallashtirish va jarayonlarni shaffoflashtirish yotadi. Davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ochiqlikni ta‘minlash hamda davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini huquqiy tartibga solish — korrupsiyaga qarshi preventiv kurashning poydevori hisoblanadi. Zero, jazo choralari qanchalik qat‘iy bo‘lmasin, agar huquqiy tizimda korrupsion imkoniyatlar (loop-holes)

1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023-y. (*Davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslari qismi uchun*).

mavjud bo‘lsa, ushbu illatni batamom yo‘q qilib bo‘lmaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — korrupsiyaga qarshi kurashishda qabul qilingan so‘nggi huquqiy hujjatlarning samaradorligini tahlil qilish, ulardagi yangi institutlar (masalan, manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi, komplayens-nazorat)ning yuridik tabiatini yoritish va sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida biz korrupsiyani keltirib chiqaruvchi huquqiy sabablarni o‘rganamiz va ularni bartaraf etishning xalqaro huquqiy andozalarini milliy qonunchilikka tadbiiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Korrupsiya tasodifiy hodisa emas, balki muayyan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy bo‘shliqlar natijasidir. Huquqshunoslik nazariyasida ushbu omillarni quyidagicha tasniflash mumkin: Birinchi asosiy sabablardan biri Diskretsiyon vakolatlarining kengligi: Qonun hujjatlarida davlat xizmatchisiga o‘z ixtiyori bilan qaror qabul qilish huquqining keng berilishi. Masalan, litsenziya berish yoki bermaslik masalasida aniq mezonlarning yo‘qligi "pora evaziga ijobiy qaror" tizimini vujudga keltirib chiqarmoqda. Manfaatlar to‘qnashuvining huquqiy tartibga solinmaganligi: Ko‘p yillar davomida davlat xizmatchisining shaxsiy biznesi yoki qarindosh-urug‘chilik aloqalari uning xizmat vazifasiga qanday ta‘sir qilishi qat‘iy qonun bilan cheklanmagan edi. Ya‘na biri Davlat xizmatchilari daromadlarining shaffof emasligi: Amaldagi tizimda xizmatchining xarajatlari uning rasmiy maoshi bilan mutanosibliigi ustidan huquqiy nazoratning zaifligi. Ma‘muriy to‘siqlar va byurokratiya: Fuqarolarning davlat idoralari bilan bevosita muloqoti, hujjatbozlikning murakkabligi va jarayonlarning yopiqligi kabi vaziyatlar jamiyatda karupsiyani keltirib chiqarmoqda. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish nafaqat qonun hujjatlariga o‘zgartirish kiritishni, balki davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida kompleks huquqiy filtrlarni joriy etishni talab etadi. Rivojlanib kelayotgan yangi O‘zbekiston sharoitida korrupsiyaning oldini olish yechimlar quyidagi strategik ustuvor yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda, birinchi navbatda, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari tarqoq holdan yaxlit tizimga o‘tkazilishi lozim. Bu boradagi

20‘RQ-419 03.01.2017

eng muhim yechim — qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjatning "korrupsiya faktoridan xolilik" darajasini tekshirishdir. Huquqiy yechim sifatida, davlat boshqaruvidagi barcha vakolatlar qat’iy chegaralanishi, ya’ni mansabdor shaxsning "o‘z xohishiga ko‘ra" qaror qabul qilish doirasi maksimal

darajada qisqartirilishi shart. Buning o‘rniga, qaror qabul qilishning aniq huquqiy algoritmlari va mezonlari joriy etilishi, "inson omili"ning ta’sirini huquqiy yo‘l bilan cheklaydi. Ayniqsa, 2024-yilda kuchga kirgan "Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida"gi qonun bu borada inqilobiy yechim bo‘lib, u davlat xizmatchisining shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini huquqiy jihatdan ajratib beruvchi asosiy filtr vazifasini o‘taydi. Huquqiy islohotlarning amaliy natijadorligi bevosita axborot texnologiyalari bilan bog‘liq. Raqamlashtirish shunchaki qulaylik emas, balki korrupsiyaning huquqiy bazasini yo‘q qiluvchi vositadir. Davlat xaridlarini, yer ajratish jarayonlarini, qurilish sohasidagi ruxsatnomalarni va litsenziyalashni to‘liq elektron formatga o‘tkazish. Elektron tizim pora so‘rash imkoniyatini ham, ehtiyojini ham yo‘q qiladi. Masalan, yer ajratishning "E-Yerelektron" tizimi orqali ochiq auksionga o‘tkazilishi o‘n yillar davomida mavjud bo‘lgan yopiq va korrupsion sxemalarga huquqiy yakun yasadi. Kelgusida "Sun’iy intellekt" texnologiyalarini davlat budjeti sarflanishini monitoring qilishga jalb etish, shubhali tranzaksiyalarni inson ishtirokisiz aniqlash imkonini beradi. Ya’ni "Sun’iy intellekt"ni ish faoliyatida qo‘llash nafaqat ish og‘irligini yengillashtiradi balki muammoni hal qiluvchi hujjatlar tayyorlanishiga inson ishtirokini imkonini bermaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashning ichki yechimi — bu halol davlat xizmati tizimini yaratishdir. Kadrlar tanlashda faqat bilim va tajribaga tayanish (meritokratiya) tizimini huquqiy mustahkamlash. "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi qonun doirasida barcha lavozimlarga tanlov asosida kirish tizimi nepotizm (urug‘aymoqchilik)ning oldini oluvchi eng kuchli huquqiy to‘siqdir.

Deklaratsiyalash va ijtimoiy kafolat: Davlat xizmatchilarining daromad va xarajatlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bilan birga, ularning ijtimoiy himoyasini (loyiqli ish haqi, tibbiy sug‘urta, uy-joy) kuchaytirish. Bu orqali mansabdor shaxsning korrupsiyaga moyilligi "iqtisodiy asossiz" holatga

3O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-son

keltiriladi. Kadrlar tanlashda faqat bilim va tajribaga tayanish (meritokratiya) tizimini huquqiy mustahkamlash. "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi qonun doirasida barcha lavozimlarga tanlov asosida kirish tizimi nepotizm (urug‘-aymoqchilik)ning oldini oluvchi eng kuchli huquqiy to‘siqdir.

Deklaratsiyalash va ijtimoiy kafolat: Davlat xizmatchilarining daromad va xarajatlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bilan birga, ularning ijtimoiy himoyasini (loyiqli ish haqi, tibbiy sug‘urta, uy-joy) kuchaytirish. Bu orqali mansabdor shaxsning korrupsiyaga moyilligi "iqtisodiy asossiz" holatga keltiriladi. Faqatgina ushbu elementlar o‘zaro muvofiq ishlaganda, huquqiy islohotlar o‘zining kutilgan samarasini beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy islohotlarning ahamiyati shunchaki qonunlar qabul qilish bilan cheklanib qolmay, balki davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining har bir bo‘g‘inida adolat va shaffoflik muhitini yaratish bilan o‘lchanadi. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi "jinoyatdan so‘ng jazolash" modelidan "jinoyatni sodir etishga imkon bermaydigan muhit yaratish" modeliga tubdan o‘tdi.

Raqamlashtirish, manfaatlar to‘qnashuvini jilovlash va kadrlar siyosatida meritokratiya tamoyillarining joriy etilishi "inson omili"ni tizimdan chiqarib tashlamoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki fuqarolarning davlatga va adolatga bo‘lgan huquqiy ishonchini mustahkamlaydi. Zero, korrupsiyadan xoli tizim — bu adolatli jamiyat, barqaror iqtisodiyot va porloq kelajakning poydevori hisoblanadi. Kelgusida ushbu islohotlarni tizimli davom ettirish, ayniqsa, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada kengaytirish davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi bo‘lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
 - 2."Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
 - 3."Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2024-yil).
 - 4"Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
 - 5.BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/>